



## XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND VILOYATI KENGASHINING QARORI

2023 - yil 22 - sentabr

VI-90-88-7-0-K/23

Samarqand viloyati hokimligi

### **Hududlarda maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun majburiy to'lov tariflari miqdorini ma'qullash to'g'risida**

“Chiqindilar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 11-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentyabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog'liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-4845-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi “[Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida](#)” 95-sonli qarorlari, viloyat hokimi o'rinbosari (A.Shukurov)ning 2023-yil 20-avgustdagi (586/01-30-sonli) bildirgisi, viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasining 2023-yil 28-iyuldagi (01-2595-sonli) murojaati, viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 3-avgustdagi (02/05-38/1276-sonli) xulosasiga asoslanib, viloyatning shahar va tumanlari hududidagi maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarini takomillashtirish, hududlarning ekologik va sanitariya holatini yanada yaxshilash maqsadida xalq deputatlari viloyat Kengashining oltinchi chaqiriq, to'qsoninchi sessiyasi

### **QAROR QILADI :**

1. Samarqand viloyatining shahar va tumanlarida maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun majburiy to'lov tariflari miqdori ilovaga asosan ma'qullansin.
2. Viloyat hokimining o'rinbosari (A.Shukurov) shahar va tumanlarda qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun majburiy to'lov tariflari miqdorini tasdiqlash to'g'risida viloyat hokimining qaror loyahasini belgilangan tartibda ishlab chiqsin.
3. Viloyat Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi (H.Oqbo'tayev), viloyat Sog'liqni saqlash boshqarmasi (S.Zayniyev), viloyat Sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatligi boshqarmasi (M.Nasretdinova) shahar va tumanlar hokimliklari bilan birgalikda aholining keng qatlamlari orasida fuqarolarning huquqiy va sanitariya-ekologik savodxonligini oshirishga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

4. Xalq deputatlari viloyat kengashining 2021-yil 4-noyabrdagi “Qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmatlar uchun majburiy to‘lov, shuningdek, yuridik shaxs va yakka tartibdagi tadbirkorlarga maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun to‘lov tariflarini belgilash to‘g‘risida”gi VI-46-85-7-0-K/21-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

5. Viloyat televideniyesi (M.Ixtiyorov), “Zarafshon” va “Самаркандский вестник” gazetalari birlashgan tahririyati (F.Toshev) qaror ijrosi bo‘yicha hududlarda amalga oshirilgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (O‘.Saidmurodov) hamda viloyat hokimi o‘rinbosarlari (F.Abilov, A.Shukurov) zimmalariga yuklansin.

**Sessiya raisi**



**F.Toshev**

Xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining  
2023-yil 22-sentabrdagi  
VI-90-88-7-0-K/23-son qaroriga  
1-ilova

**Shahar va tumanlarda maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmat ko'rsatish uchun majburiy to'lov tariflari**

**MIQDORI**

<b>Xizmatlar turi</b>	<b>Tip, Marka, artikul yoki model raqami</b>	<b>O'lchov birligi</b>	<b>Taklif etilayotgan narx (tarif) (so'm)</b>
<b>Samarqand shahri va Samarqand tumani bo'yicha</b>			
Aholi uchun tarif 1 kishi 1 oyda	Maishiy chiqindilar	Bir oyda fuqaro uchun	5 000
Yuridik tashkilotlari uchun tarif (QQS bilan)	Maishiy chiqindilar	m3	90 000
		1 tonna uchun	182 550
	Suyuq chiqindilar	1 tonna uchun	86 525
<b>Kattaqo'rg'on shahri va tumanlar bo'yicha</b>			
Aholi uchun tarif 1 kishi 1 oyda	Maishiy chiqindilar	Bir oyda fuqaro uchun	4 129
Yuridik tashkilotlari uchun tarif (QQS bilan)	Maishiy chiqindilar	m3	59 693
		1 tonna uchun	155 824
	Suyuq chiqindilar	1 tonna uchun	70 600